

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda



- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta va virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar


2025-yil yanvar-noyabr oyi

Viloyat statistika boshqarmasiga 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan **66** ta (o'tgan yilning shu davrida **98** ta) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **36 tasi** to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **28 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, **2 tasi** virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlardan iborat.

## Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

### Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 18 tasi (27,2 foiz) Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqa statistik ma'lumotlarni taqdim etish so'ralgan, 16 tasi (24,2 foiz) Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, 13 tasi (19,7 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 11 tasi (16,7 foiz) Boshqa masalalar yuzasidan, 8 tasi (12,2 foiz) Davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, faoliyat turi, statistik kodlar berish bo'yicha ma'lumotlar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini berish
- Boshqa murojaatlar
- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


### Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi **14** ta Namangan shahrida, **10** ta Namangan tumanida, **9** ta Davlatobod tumani, **4** ta Uychi tumani, **4** ta Yangi Namangan tumani, **3** ta Norin tumani, **3** ta Pop tumani, **3** ta To'raqo'rg'on tumani, **3** ta Chortoq tumanida, **3** ta Kosonsoy tumanida, **2** ta Mingbuloq tumanida, **2** ta Uchqo'rg'on tumanida, **2** ta Chust tumani, **2** ta Yangiqo'rg'on tumani va **2** ta boshqa murojaatlar kelib tushgan.


## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 36 tasiga chora ko'rildi, 28 tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 22 ta (33,4%) jismoniy shaxslar va 44 ta (66,6%) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## **Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
  - (69)211-00-72

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
  - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – [namstat@umail.uz](mailto:namstat@umail.uz) elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

### **Namangan viloyati statistika boshqarmasi**

Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi nazorati

Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov  
(0369) 227-85-06